

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Ped.72.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

QURBONOVA O‘LMAS USMONOVNA

**MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA DIDAKTIK FIKRLAR
TARAQQIYOTI (2006-2019 YILLAP)**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

UDK: 37.026(09)(575.1) “2006-2019”

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical
sciences**

Qurbonova O‘lmas Usmonovna

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda didaktik fikrlar taraqqiyoti (2006-2019 yy.)...3

Курбонова Улмас Усмоновна

Развитие дидактической мысли в Узбекистане за годы независимости
(2006-2019 гг.)..... 21

Kurbonova Ulmas Usmonovna

Development of didactic ideas in Uzbekistan during the years of independence
(2006-2019)..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 43

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Ped.72.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

QURBONOVA O‘LMAS USMONOVNA

**MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA DIDAKTIK FIKRLAR
TARAQQIYOTI (2006-2019 YILLAP)**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attetsatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/Ped2175 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Adizov Baxtiyor Rahmonovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy oponentlar: Ma'murov Bahodir Baxshullayevich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Kenjayeva Dildora Tirkashevna
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot: Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30. 12.2019.Ped.72.04 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 04 02 soat 10:00 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11 uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

2024 Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11 uy. Tel.: (0 365) 221-25-87).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil « 18 02 » kuni tarqatildi.

(2023-yil « 18 02 » da 1 raqamli reestr bayonnomasi).



S.Q.Qahhorov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, p.f.d (PhD), professor

A.R.Jo'raev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
a'zosi, p.f.d (PhD), professor

H.O.Jo'raev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, p.f.d.
(DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha mo'ljallangan ta'lim konsepsiyasida "ta'lim taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlariga yetkazuvchi muhim faoliyat" sifatida e'tirof etilib¹, ta'limni yaxshilash va o'zlashtirish natijalarini baholash usullarini takomillashtirish, ta'lim berish, ochiq ta'lim resurslari, o'quvchining intellekt darajasini rivojlantirishning samarali usullaridan keng foydalanilmoqda. Zamon talablariga mos ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish mexanizmlari, uni takomillashtirish modellari, metodik tizimi, multimediali elektron resurslar yaratish ustuvor vazifa etib belgilangan.

Dunyoda didaktik fikrlar rivojining asosiy tendensiyalari va ustuvor yo'nalishlarini aniqlashtirish, ta'lim-tarbiya jarayonlarining globallasuvi sharoitida komparativistik yondashuv asosida milliy modellarni ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, ta'limni insonparvarlashtirishning pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu bilan birgalikda "ta'lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish" muhim ahamiyat kasb etadi. Bozor munosabatlari sharoitida hamkorlikdagi faoliyatga qodir pedagog kadrlarni tarbiyalash zaruriyatni yuzaga keldi.

Mamlakatimizda "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da o'zbek xalqining milliy ta'lim tizimini rivojlantirish, uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan². Buning uchun mamlakatimiz ta'lim tizimini xalqaro ta'lim standartlari bilan uyg'unlashtirib, ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash sifati hamda raqobatbardoshligini ta'minlash, jahon amaliyotiga asoslangan ta'lim tizimining sifat darajasini oshirish, uzluksiz ta'lim tizimiga ilg'or didaktik g'oyalarni keng tatbiq etish orqali ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali metodlarini ishlab chiqish ilmiy-nazariy va kompleks tadqiqotlarni olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" farmonlari, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2020 yil 6 noyabrdagi PQ-4884-son "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-

¹ Incheon Declaration / Education 2030. Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all. –p. 6–7// <http://unesdoc.unesco.org/images/0023/002338/233813m.pdf>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, <https://lex.uz/docs/5841063>

tadbirlar to'g'risida", 2021 yil 1 apreldagi PQ-5047-son "Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovasion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-son qarori hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g'oyalari tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda didaktik fikrlarning rivojlanish tarixi yuzasidan muayyan darajada ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, ta'lim va tarbiya mazmunini isloh qilishning metodologik asoslarini o'rganishda J.Yo'ldoshev, S.Nishonova, J.Hasanboyev, U.Aleuov, N.Erkaboyeva, M.Salayeva, E.Purxanov tadqiqotlari, mamlakatimizda Markaziy Osiyo xalqlari pedagogik fikrlari taraqqiyotini o'rganishga doir izlanishlar Sh.Abdullayeva, U.Aleuov, A.Zunnunov, X.Ibragimov, S.Nishonova, K.Hoshimov, J.Hasanboyev, D.U.Djurayev, M.S.Salayevaning ishlari, didaktika va xususiy metodika sohasida A.Zunnunov, N.G'aybullayev, J.Yo'ldoshev, R.Safarova, M.Mahmudova, B.Adizov, M.Mahmudov, G.Najmiddinova tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan³.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlari didaktik fikr rivojining komparativistik jihatlari N.V.Bordovskaya, A.N.Djurinskiy, V.V.Krayevskiy, V.S.Stepin, A.V.Xutorskoy, V.Okon, E.G.Gelfman tadqiqotlarida ochib berilgan.

Xorijlik olimlar didaktik tadqiqotlarida insonparvarlik, madaniy dialog, reformatorlik pedagogikasi rivojining yetakchi tendensiyalari va ustuvor yo'nalishlari C.Bereiter, I.Illich, L.Kohlberg, J.Lemke, I.Lakatos izlanishlarida tahlil qilingan.

O'rganilgan va tahlil qilingan adabiyotlar va oliy ta'lim muassasalari, ayniqsa, pedagogik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalarida pedagogik turkum fanlarning holatini o'rganish va tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mustaqillik yillarida O'zbekistonda shakllangan didaktik fikrlarni maxsus o'rganish va ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish bo'yicha maxsus tadqiqot ishi amalga oshirilmagan. Bu esa, mustaqillik yillarida O'zbekistonda didaktik fikrlar taraqqiyoti bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish, ularni umumlashtirish, tartiblash hamda tizimli tahlil etish asoslarini takomillashtirish alohida dolzarflik kasb etadi.

³ Zunnunov A, Mahkamov U. "Didaktika" (Ta'lim nazariyasi). O'quv qo'llanma. Toshkent. "Sharq" 2006 yil; Mahmudov M.H. Ta'limni didaktik loyihalashning didaktik asoslari. Ped. fanl. dokt. ...diss. avtoreferati. –T., 2004. – 46 b; Roziqov O., Adizov B., Najmiddinova G. Umumiy didaktika. Buxoro. "Durdona" 2012 yil, B.322; Юзликаева Э.Р. Теория и практика подготовки учителя к диагностической деятельности: Дис... док. пед. наук. – Т., 2012. –284 с; Purxanov Yu. Mustaqillik yillarida Qoraqalpog'istonda pedagogik fikrlar taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari. Nukus, 2022 yil. B.52; Najmiddinova G.N. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'quv-biluv faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari. Avtoreferat. Toshkent, 2006.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi Buxoro davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Uzluksiz ta'lim tizimida mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni tarbiyalashning ilmiy-pedagogik asoslari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mustaqillik yillarida O'zbekistonda didaktik fikrlar mazmunini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish va ulardan pedagogika fanlar tizimida foydalanishga oid tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

O'zbekistonda mustaqillik yillarida didaktik fikrlar taraqqiyotining ijtimoiy-madaniy shart-sharoitlarini tavsiflash;

tizimli yondashuv asosida didaktik fikrlar taraqqiyotining asosiy tendensiyalarini aniqlashtirish;

O'zbekistonda didaktik fikrlar taraqqiyotini o'rganish modelini takomillashtirish;

O'zbekistonda didaktik fikrlar taraqqiyotining istiqbolli yo'nalishlari (kognitiv, shaxsiy-insonparvarlik, ijtimoiy-pedagogik, madaniy-antropologik) sotsiosentrik va antroposentrik qadriyatlarini ta'lim-tarbiyaning yetakchi paradigmatlari bilan bevosita va bilvosita aloqadorligini aniqlashtirish.

Tadqiqot ob'yekti mustaqillik yillarida O'zbekistonda didaktik fikrlar taraqqiyoti jarayoni belgilanib, pedagogik tajriba-sinov ishlariga Buxoro, Qarshi, Termiz davlat universitetlarining 748 nafar respondent talabalari jalb etildi.

Tadqiqot predmeti sifatida mustaqillik yillarida O'zbekistonda didaktik fikrlar taraqqiyoti yo'nalishlari va ularda ilgari surilgan asosiy g'oyalarni o'rganishning shakl, metod va vositalari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida mavzuga oid falsafiy, sotsiologik, anketa, so'rovnoma, modellashtirish, qiyoslash, matematik-statistik tahlil hamda tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

O'zbekistonda didaktik fikrlar tarixiy taraqqiyotning ijtimoiy-madaniy shart-sharoitlari, ilmiy-tadqiqot ishlarining amalga oshirilishi, ta'lim ustuvorligining tan olinishi, ta'lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflikning ta'minlanishi bilan bevosita bog'liq ekanligi asoslangan;

eksperimental va innovatsion faoliyat negizida didaktik fikrlar taraqqiyotining komparativistik, antropologik, akmeologik, andragogik jihatlari istoriografiyaning vorisliqlik, ob'yektivlik tamoyillariga ustuvorlik berish asosida milliy konsepsiyaning aniq maqsadga yo'naltirilganligi aniqlashtirilgan;

innovatsion ta'lim muhiti sharoitida O'zbekistonda didaktik fikrlar taraqqiyoti modelini tashkiliy-tuzilmali komponenti loyihalash, ilmiylik, izchillik, ko'rgazmalilik, ta'limda onglilik va faollik tamoyillaridan foydalanish natijasida tizimli, integrativ, innovatsion, strategik, nazariya va amaliyotning praksiologik produktivligi identivligini ta'minlash orqali takomillashtirilgan;

O'zbekistonda ta'lim rivojining milliy xususiyatlari pedagogik g'oyalar integratsiyasining shaxs va jamiyat rivojiga ta'sirini prognozlash asosida didaktik fikrlar taraqqiyotining istiqbolli yo'nalishlarini aniqlashtirishga doir taklif va

tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Pedagogika nazariyasi va tarixi”, “Umumiy pedagogika” fanlarining ayrim mavzularini o‘qitish jarayonida, shuningdek, mustaqil ish topshiriqlari va metodik ishlanmalarida milliy mustaqillik yillarida yaratilgan didaktik fikrlarga tayanib, didaktik materiallar ishlab chiqilgan;

O‘zbekistonda mustaqillik yillarida didaktik fikrlarni Oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida o‘rganishga qaratilgan “Pedagogik konfliktologiya” nomli o‘quv qo‘llanma ishlab chiqilgan;

ta’lim-tarbiyaviy fikrlar natijalarini amaliyotga qo‘llashga doir pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun “Qiyosiy pedagogika” elektron darslik axborot-metodik ta’minot, elektron ta’lim resurslari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalardan olinganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o‘tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari yuzasidan berilgan xulosalar, takliflar ishlab chiqilganligi va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O‘zbekistonda didaktik fikrlar taraqqiyotining ijtimoiy-madaniy shart-sharoitlari (omillari, bosqichlari, mazmuni) ilmiy-tadqiqot ishlarining amalga oshirilishi, milliy konsepsiyaning aniq maqsadga yo‘naltirilganligi, ta’lim ustuvorligining tan olinishi, ta’lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflikning ta’minlanishi bilan bevosita bog‘liq ekanligi, tizimli yondashuv asosida eksperimental va innovatsion faoliyat negizida didaktik fikrlar rivojining etnopedagogik, komparativistik (chog‘ishtirma), antropologik, akmeologik, andragogik jihatlarini vorisiylik tendensiyalariga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O‘zbekistonda didaktik fikrlar taraqqiyotining istiqbolli yo‘nalishlarini belgilashda sotsiosentrik va antroposentrik qadriyatlar ta’lim-tarbiyaning yetakchi paradigmatlari bilan bevosita va bilvosita aloqadorligini hisobga olishga doir ilmiy-uslubiy tavsiyalarning ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekistonda mustaqillik yillarida didaktik fikrlar taraqqiyotiga doir tadqiqot natijalari asosida:

O‘zbekistonda didaktik fikrlar tarixiy taraqqiyotning ijtimoiy-madaniy shart-sharoitlari, ilmiy-tadqiqot ishlarining amalga oshirilishi, ta’lim ustuvorligining tan olinishi, ta’lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflikning ta’minlanishi bilan bevosita bog‘liq ekanligiga doir ko‘rsatkichlari AI-XT-0-92997 “Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg‘unligi asosida ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida belgilangan asosiy vazifalarni bajarishda foydalanilgan (T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialining

2022 yil 22 noyabrdagi 329-son ma'lumotnomasi). Natijada, yoshlarga milliy qadriyatlarni singdirishda milliy va zamonaviy ta'lim-tarbiyaviy fikrlarni uyg'unlashtirish imkoniyati yaratilgan;

eksperimental va innovatsion faoliyat negizida didaktik fikrlar taraqqiyotining komparativistik, antropologik, akmeologik, andragogik jihatlarini istoriografiyaning vorisiylik, ob'ektivlik tamoyillariga ustuvorlik berish asosida milliy konsepsiyaning aniq maqsadga yo'naltirilganligiga doir taklif va tavsiyalar "Qiyosiy pedagogika" nomli elektron darsligi mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazining 2022 yil 22 noyabrdagi № 02/01-01-85-son ma'lumotnomasi). Natijada, bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida O'zbekistonda pedagogik fikrlar taraqqiyotini o'qitish samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

innovatsion ta'lim muhiti sharoitida O'zbekistonda didaktik fikrlar taraqqiyoti modelini tashkiliy-tuzilmali komponenti loyihalash, ilmiylik, izchillik, ko'rgazmalilik, ta'limda onglilik va faollik tamoyillaridan foydalanish natijasida tizimli, integrativ, innovatsion, strategik, nazariya va amaliyotning praktsiologik produktivligi identivligi "Pedagogik konfliktologiya" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021 yil 28 avgustdagi 375-son buyrug'i, 375-027-raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, talabalarning mustaqillik yillarida didaktik fikrlar rivojini tizimli va uzviylik asosida o'rganishlari, qiyosiy tahlil etish va xulosa chiqarish malakalarini rivojlantirishga xizmat qilgan;

O'zbekistonda ta'lim rivojining milliy xususiyatlari pedagogik g'oyalar integratsiyasining shaxs va jamiyat rivojiga ta'sirini prognozlash asosida didaktik fikrlar taraqqiyotining istiqbolli yo'nalishlariga doir tahlillardan Buxoro teleradiokompaniyasining "Assalom, Buxoro", "Sakkizinchi mo'jiza" ko'rsatuvlari, "Muloqot va munozara" radioeshittirishlari ssenariysini tuzishda foydalanilgan hamda tadqiqot materiallari asosida davra suhbatlari va muloqotlar uyushtirilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining 2022 yil 16 noyabrdagi 1/287 – sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ilmiy natijalarning qo'llanilishi teleko'rsatuv va eshittirishlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashishiga, ilmiy dalillarga boy bo'lishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni 2 ta xalqaro va 15 ta respublika ilmiy-nazariy hamda amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan va ma'qullangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 32 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyrug'i asosida 1 ta o'quv qo'llanma, 1 ta elektron darslik, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 8 tasi xorijiy

jurnallarda nashr etilgan.


Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, matn, rasmlar, jadvallar, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 150 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti, predmeti, tadqiqotda qo'llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“O'zbekistonda mustaqillik yillarida didaktik fikrlar taraqqiyotining ilmiy-nazariy asoslari”** nomli birinchi bobida didaktik fikrlar taraqqiyotining tarixiy-pedagogik manbalarda aks etishi, O'zbekistonda mustaqillik yillarida ijtimoiy hayot va ta'lim-tarbiya jarayonlari, didaktik qarashlarni o'rganishning metodologik asoslari, umumiy va o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda didaktik fikrlar taraqqiyotining ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlari o'ziga xos jihatlari bilan e'tiborga molik. Bu sohada ta'lim tizimini isloh qilish alohida e'tiborni tortadi (1-rasmga qarang).



1-rasm. O'zbekistonda mustaqillik yillarida ta'lim tizimini isloh qilish bosqichlari

Uzoq tarixga ega bo'lgan o'zbek xalqining ta'lim-tarbiyaga oid boy hayotiy

tajribasi kelgusi yosh avlodni bilimli, hur fikrli, e'tiqodli, dunyoqarash va tafakkurga ega, milliy o'zligini anglagan barkamol shaxs sifatida tarbiyalashdek kuchga ega. Ayniqsa, xalqimizning fan, maktab va maorif sohasidagi boy tajribasini ilmiy o'rganish, ularning maqsadga muvofiq jihatlaridan bugungi ta'lim tizimida samarali foydalanish ijtimoiy zaruratdir.

Mamlakatimizda bugungi kunda pedagogik fikrlar taraqqiyotini o'rganish hamda pedagogika fanining zamonaviy konsepsiyasini yaratish va yanada takomillashtirish borasida muayyan ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirildi. N.Erkaboyeva, M.Salayeva tadqiqotlarida pedagogik fikrlar taraqqiyoti hamda pedagogika tarixini davrlashtirish muammolari tadqiq qilindi.


Yu.Purxanov tadqiqotida bevosita mustaqillik yillarida Qoraqalpog'istonda pedagogik fikrlar yo'nalishlari tahlil qilindi.

Olib borilgan tadqiqotlarni ilmiy-xronologik, amaliy tahlil qilish natijasida bu davrda yaratilgan didaktika bo'yicha asarlarda hamda didaktik qarashlarni o'rganish bo'yicha pedagogika, falsafa, psixologiya kabi fan sohalari doirasida ishlar amalga oshirilganligini kuzatish mumkin.

Ushbu pedagogik g'oyalar mustaqillik yillaridagi didaktik fikrlar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari va yetakchi tendensiyalarini aniqlashtirishda asosiy manba hisoblanadi.

Shuningdek, mustaqillik yillarida didaktik fikrlar taraqqiyotining ijtimoiy shart-sharoitlari o'ziga xos omillarga ega bo'ldi. Ya'ni uzluksiz ta'lim tizimida modernizatsiyalash harakatlarining takomillashuvi, bir bosqichli tizimdan ikki bosqichli oliy ta'limga o'tishning qulayligi; tadqiqot natijalarini joriy etishga qo'yilayotgan talablarning nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlashga xizmat qilganligi, Davlat grantlari asosida pedagogik tadqiqotlarni amalga oshirish imkoniyati kengayganligi ko'zga tashlanadi. Umuman, ushbu omillar asosida mustaqillik yillarida O'zbekistonda didaktik fikrlarning asosiy yo'nalishlari rivojlandi.

Bu davrdagi ta'lim-tarbiyaviy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlari to'rt yo'nalishda rivojlanganligi bilan ko'zga tashlanadi (2-rasmga qarang).



2-rasm. Mustaqillik yillarida didaktik fikrlar taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari.

Dissertatsiyaning **“Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda didaktik fikrlar taraqqiyotining amaliy asoslari”** nomli ikkinchi bobida O‘zbekistonda mustaqillik yillarida ilmiy-pedagogik qadriyatlarining yangilanishi, ta‘lim-tarbiyaviy fikrlar rivojining ustuvor yo‘nalishlari, ta‘lim-tarbiyaga doir milliy konsepsiyalarning pedagogik tadqiqotlar rivojida o‘rni va ahamiyati yoritib berilgan. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda didaktik fikrlar taraqqiyoti didaktika va o‘qitish texnologiyalari yo‘nalishlarida o‘zbekistonlik olimlarning innovatsion g‘oyalari bilan takomillashdi.

Didaktika, o‘qitish texnologiyalariga doir tadqiqotlar doirasida umumta‘lim fanlarini o‘qitish mazmunini tizimlashtirish va o‘qitish usullarini ishlab chiqishga oid bir qator innovatsion yondashuvlar aniqlashtirildi.

Tadqiqot ishini olib borish davomida O‘zbekistonda mustaqillik yillarida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va didaktik fikrlarni quyidagi 4 ta asosiy yo‘nalishda tizimlashtirishga harakat qilindi:

birinchi yo‘nalish: boshlang‘ich ta‘limga doir R.Ibragimov, B.Adizov, Sh.Abdullayeva, E.Yangiboyeva, M.Inoyatova, G.Najmiddinova, F.Xodjiyeva, Z.Umurov, Sh.Boltayevalar olib borgan tadqiqot ishlarini kiritish mumkin. Ularning boshlang‘ich ta‘limni tahlil etishdagi yangicha yondashuvi boshlang‘ich maktab ta‘lim tizimi ta‘lim-tarbiyaviy an‘analarining qayta tiklanishi, O‘zbekistonda pedagogik fikrlar taraqqiy etishining haqiqiy namunasi bo‘ldi.

Ikkinchi yo‘nalish: umumiy o‘rta ta‘lim (5-11 sinf) mazmuniga doir olib borilgan tadqiqotlar M.Mahmudov, R.Shodiyev, Soy Margarita, O‘.Yo‘ldoshev, Sh.Ne‘matov, M.Vahobov, G.Eshmurodova, D.Qahharova, N.Narziyeva, Sh.Toshpulatovalar tomonidan amalga oshirilib, didaktika fani rivojiga hissa qo‘shildi.

Uchinchi yo‘nalish: oliy ta‘lim tizimiga doir tadqiqotlar Sh.Mardonov, N.Muslimov, G.Ibragimova, A.Aripdjanova, A.Maxmudov, G.Karimova, A.Xalikov, B.Ma‘murov, F.Yuzlikayevlar tomonidan amalga oshirilib, pedagogika fani rivojiga o‘z hissalarini qo‘shdi.

To‘rtinchi yo‘nalish: malaka oshirish tizimiga doir tadqiqotlar bo‘lib, bu yo‘nalishda Sh.Mardonov, M.Jumanioyozova, D.Hidoyatova, I.Eshmamatov, A.Askarov, A.Ibragimovlar tadqiqot ishlarini tizimlashtirilib, malaka oshirish tizimida ta‘lim mazmuni, malaka oshirish ta‘limida pedagogik texnologiyalarni qo‘llash masalalari, pedagog kadrlarni ta‘limiy qadriyatlar asosida rivojlantirish, o‘qituvchilarni innovatsion jarayonga tayyorlash, masofaviy malaka oshirish muammolari tahlil qilindi.

Yosh avlodni tarbiyalashda eng avvalo yangicha didaktik fikrlarning shakllanishi, ularning rivojlanishida yangi yo‘nalishlar, pedagogik tadqiqotlar olib borilishi pedagogik metodologiyaning yangilanishi talab etiladi. Shu jihatdan O‘zbekistonda mustaqillik yillarida ta‘lim-tarbiyaviy fikrlar rivojining ustuvor yo‘nalishlari tizimlashtirishga harakat qilindi.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida pedagogika tarixi, didaktika, o'qitish metodikasi va yangi pedagogik texnologiyalar rivojlandi, qator olimlar didaktika, o'qitish metodikalari va yangi pedagogik texnologiyalar yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordilar.

B.Adizov boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishda bolaning his-tuyg'ulari, emotsiya, tafakkuri, mustaqil fikrlashiga alohida e'tibor bergan.

R.Ibragimov boshlang'ich sinf o'quvchilari bilish faoliyatini shakllantirish muammosini tahlil qiladi. Shaxsning ijodiy faoliyatini rivojlantirishni uning aqliy qobiliyati, bilish faoliyati, mustaqil fikr yuritish muammolariga bog'lab talqin etadi.

H.Nazarova tadqiqotlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ savodxonligini ta'minlashda, o'quvchilarning erkin fikrlash hamda fikrini mustaqil bayon qilish darajasi ochib berilgan.

U.Musayevning ilmiy tadqiqot ishida o'quv-biluv jarayoni pedagogik muammo sifatida o'rganilgan, o'quv-biluv jarayonini o'quvchi shaxsiga yo'naltirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari aniqlashtirilgan, ta'lim mazmuni, o'quv dasturlari va darsliklarni takomillashtirish, ta'lim jarayonining tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari tahlilga tortilgan.

G.Najmiddinova o'z tadqiqotida, boshlang'ich sinf o'quvchilari o'quv-bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslarini yoritib bergan.

Z.Umurov ishida boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'limiy muammolariga oid didaktik shart-sharoitlar aniqlashtirilib, boshlang'ich sinflarda ta'limiy muammolarni o'quvchilarning tafakkuriga moslab tashkil etish, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga yo'naltirish, ularni mustaqil xulosa chiqarishga odatlantirish hamda ijodiy izlanish yo'li bilan o'quv materialini mustaqil o'rganish shakllarini takomillashtirishga diqqat qaratilgan.

N.Yunusova boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy faoliyat orqali tarbiyalash muammosini tadqiq etadi, shuningdek, ijodiy faoliyat yordamida tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlash modelini tuzib chiqadi.

Mustaqillik yillarida metodika sohasida qator tadqiqot ishlari olib borildi. Jumladan, amalga oshirilgan fundamental tadqiqotlardan biri pedagogika fanlari doktori E.Yangibayevaning "O'zbekistonda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga matematikani o'qitishning nazariyasi va amaliyoti" mavzusidagi tadqiqoti bo'ldi.

R.Safarovning tadqiqot ishida, ona tili o'quv fani bo'yicha tanlanadigan o'quv materialini kontsentrizm tamoyili asosida tanlashning didaktik afzalliklari ko'rsatib o'tilgan.

F.Saidova texnikaviy oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish sifatini boshqarishni takomillashtirish masalalarini tadqiq qilgan.

O.Toshpulatova ishida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish (fizika darslari misolida) masalasiga e'tibor berilgan.

Oliy ta'lim sohasida olib borilgan tadqiqotlar bevosita Oliy kasbiy ta'lim jarayonida talabani o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini namoyon qilishga qaratilgan o'quv jarayonini rivojlantirish, avvalo, yetakchi didaktik tamoyillarga amal qilishni o'z ichiga oladi. Bu tamoyillar o'quv jarayonini tashkil etishning umumiy talablari va uning yo'nalishini belgilaydi.

Ta'limni samarali tashkil etish, o'quv jarayonida talabani qo'llab-quvvatlash natijasida talaba individual ta'lim mahsulotini yaratadi. Bunda faoliyatning qiymati va ma'no-mazmunini aks ettirish juda muhim sanaladi. O'quv mahsulotini yaratish monitoringini olib borishda baholashdan foydalanish mumkin.

Pedagog olimlar tomonidan ilgari surilgan g'oyalar, qoidalar va farazlar o'qitish metodlarini takomillashtirishda, maktablar ishining samaradorligini oshirishda o'qituvchi, pedagogik jamoa va xalq ta'limi boshqarmalariga yordam berishga intilishdan kelib chiqadi. Bu esa hozirgi davrda, shuningdek, istiqbolda uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim samaradorligini yuksaltirishda muhim omil bo'lib, yangilangan pedagogik tafakkurning shakllanishiga xizmat qiladi.

Olib borilgan tahlillar asosida O'zbekistonda didaktik fikrlardan zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish modeli takomillashtirildi (3-rasmga qarang).


Modelning tashkiliy texnologik komponentlari o'quv jarayonini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlarini o'z ichiga olgan. Bunda ta'lim mazmunini didaktikaga oid bilimlar tashkil etadi.

3-rasmda keltirilgan didaktik bilimlar tizimi asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning takomillashtirilgan modeli "Maqsadli komponent", "Konseptual komponent", "Tashkiliy-texnologik komponent", "Natijaviy baholash komponenti" komponentlardan tashkil topgan.

O'zbekistonda didaktik fikrlar taraqqiyotini o'rganish va amaliyotga tatbiq etishda talabalarning bilim, ko'nikma, malakalari orasidagi bog'lanish, pedagogik, kreativlik kompetensiyalarni shakllantirishga oid yondashuvlar, prinsiplar hamda ta'lim mazmuni, uni amalga oshirish jarayoni ifodalandi.

Modelning konseptual komponentida, tizimli, integrativ, innovatsion, strategik yondashuvlar asosida darsda va darsdan tashqari shakllarda mashg'ulotlar tashkil etildi. Mashg'ulotlarni loyihalash, ilmiylik, nazariya bilan amaliyotning bog'liqligi, izchillik, ko'rgazmalilik, ta'limda onglilik va faollik tamoyillari orqali o'qitiladi.

Modelning tashkiliy texnologik komponentlari o'quv jarayonini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlarini o'z ichiga qamrab olgan. Bunda ta'lim mazmunini didaktikaga oid bilimlar tashkil etadi. Ta'limni tashkil etishning individual, guruhli, jamoa shakllaridan foydalanib darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida talabalar bilan ta'limning nafaol, faol, interfaol metodlari orqali, didaktik vositalardan foydalangan holda mashg'ulotlar tashkil etiladi.



3-rasm. O'zbekistonda didaktik fikrlar taraqqiyotini o'rganish va amaliyotga tatbiq etish modeli.

Dissertatsiyaning “**Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda yangilangan didaktik fikrlardan foydalanishning samaradorlik darajasi**” deb nomlangan uchinchi bobda tadqiqot mavzusi yuzasidan tajriba-sinov ishlari, muammoga doir ilmiy-pedagogik manbalar o‘rganildi va tahlil qilindi.

Tajriba-sinov ishlariga Buxoro davlat universitetidan 270 nafar, Termiz davlat universitetidan 252 nafar, Qarshi davlat universitetidan 226 nafar pedagogika va psixologiya, boshlang‘ich ta‘lim, maktabgacha ta‘lim, psixologiya bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlarining jami 748 nafar talabalari respondent sifatida jalb etildi.

Asosiy e‘tiborni talabalarning didaktik fikrlar rivoji, didaktika bo‘yicha bilimlariga, ularga bo‘lgan munosabatiga qaratildi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligi, umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan samarali bilim olishlarini ilmiy-metodik jihatdan nazariy asoslanib, tajriba-sinov ishlari tajriba va nazorat guruhlariga ajratgan holda amalga oshirildi. Tajriba guruhlarida mashg‘ulotlar ishlab chiqilgan va tavsiya etilgan metodik ishlanma asosida nazorat guruhlarida mashg‘ulotlar an‘anaviy shaklda tashkil etildi. Tajriba-sinov ishlari rejadagi mashg‘ulotlar doirasida, an‘anaviy dars shakllaridan tashqari, Moodle platformasi, Hemis OTM axborot tizimi va Zoom dasturlaridan foydalangan holda amalga oshirildi.

Pedagogik-tajriba sinov ishlari tadqiqotning tasdiqlovchi bosqichida tajriba guruhlarini uchun “Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda ta‘lim-tarbiya va didaktik fikrlar” maxsus kursi tashkil qilinib, ularga tadqiq qilinayotgan mavzu bo‘yicha ma‘lumot berildi.

Maxsus kurs “Pedagogika nazariyasi va tarixi”, “Umumiy pedagogika” “Pedagogik fikrlar tarixi”, “Pedagogika tarixi” fanlari mazmunidagi tadqiq qilinayotgan muammo doirasidagi mavzularni o‘rganishda “Muammoli o‘qitish”, “FSMU texnologiyasi”, “Venn diagrammasi”, “SWOT tahlil”, “Insert strategiyasi” “KWHL metodi” kabilar hamda ma‘ruza-munozara, ma‘ruza-suhbat, axborot-vizual ma‘ruza kabi shakllardan “Aqliy hujum”, “Tanqidiy fikrlash”, “kichik guruhlarda ishlash”, “munozara” interfaol usullari va kompyuter yordamida tajriba guruhlarida mashg‘ulotlar tashkil etildi.

O‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarida uchinchi yakunlovchi bosqichida ishlab chiqilgan usullarning natijasini va tashkillashtirilgan mashg‘ulotlarning samarasini aniqlash maqsadida talabalarga ushbu bosqichning boshlanishi va yakunida mavzu bo‘yicha quyidagi topshiriqlar tavsiya qilindi:

1-topshiriq: O‘zbekistonda mustaqillik yillarida didaktik fikrlar taraqqiyoti bo‘yicha qanday ma‘lumotga egasiz, fikringizni izohlang?

2-topshiriq: Pedagogika fanining yangi tarmoqlari haqida nimalar bilasiz?

3-topshiriq: Didaktika fani rivojiga hissa qo‘shgan olimlar ishlarini tahlil qiling.

4-topshiriq: O‘zbekistonda qanday ta‘lim muassasalari mavjud, ularni tahlil qiling?

5-topshiriq: O‘zbekistonda didaktik fikrlar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarini tahlil qiling.

6-topshiriq: Istiqlol yillarida didaktik fikrlar rivojlanish shart-sharoitlari va omillarini tahlil qiling.

7-topshiriq: Oliy ta'lim talabalari uchun yaratilgan didaktika, pedagogika nazariyasi va tarixi darsliklarini tahlil qiling.

8-topshiriq: Ta'lim jarayonida qo'llanadigan axborot texnologiyalari haqida ma'lumot bering.

Topshiriqlar va ularning mazmunini yorituvchi manbalar talabalarga o'quv yilining boshida taqdim etildi va ular muayyan ketma-ketlikda muhokama etilib, tahlil qilindi.

Tadqiqot ishining pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalarini aniqlash maqsadida Student va K.Pirsonning χ^2 mezonini orqali tajriba-sinov jarayonining tajriba va nazorat guruhlarini talabalarining dastlabki bosqich yakunidagi ko'rsatkichlari bilan yakuniy bosqich ko'rsatkichlari matematik-statistik tahlil qilindi.

O'tkazilgan savol-javoblar quyidagi natijalarni ko'rsatdi (1-jadvalga qarang).

1-jadval


Respondent talabalar o'rtasida o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari mustaqillik yillarida O'zbekistonda didaktik fikrlarni bilishga doir topshiriqlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlari qiyosiy tahlili

T/r		Tajriba guruhi					Nazorat guruhi				
		Talabalarining umumiy soni	yuqori	o'rta	past	qoniqarsiz	Talabalarining umumiy soni	yuqori	o'rta	past	qoniqarsiz
Buxoro davlat universiteti											
Tajriba boshida	270	142	21	61	48	12	128	14	42	57	15
Tajriba oxirida	270	142	50	64	25	3	128	21	38	57	12
Termiz davlat universiteti											
Tajriba boshida	252	130	31	43	41	15	122	19	61	34	8
Tajriba oxirida	252	130	49	52	26	3	122	20	55	41	6
Qarshi davlat universiteti											
Tajriba boshida	226	115	27	58	18	12	111	23	39	37	12
Tajriba oxirida	226	115	39	62	10	4	111	20	36	45	10
Jami		387	138	178	61	10	361	61	129	143	28

Tajriba va nazorat guruhlari uchun emperik qiymatlarni hisoblashda, tajriba guruhining ko'rsatkichlari M_i lar, mos talabalar sonlari m_i lar xuddi shu kattaliklarni nazorat guruhlari uchun N_i , n_i lar bilan belgilab olinib, quyidagi formuladan foydalanildi.

$$\chi^2_{emp} = T \cdot N \cdot \sum_{i=1}^M \frac{\left(\frac{m_i}{T} - \frac{n_i}{N}\right)^2}{\frac{m_i + n_i}{T}}$$

1-jadvalda keltirib o'tilgan natijalar tahlili asosida talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichi samaradorligi diagramma ko'rinishida 4-rasmda yoritib berildi (4-rasmga qarang).



4-rasm. Talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichi diagrammasi

Yuqoridagi statistik tahlillar asosida shunday xulosa qilish mumkinki, tajriba guruhlaridagi talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari nazorat guruhlaridagi talabalarning ko'rsatkichidan yuqori o'lib, pedagogik tajriba-sinov ishining yakuniy bosqichida olingan natija 11% ($1,15 - 1,04 = 0,11$) samaradorligining yuqori ekanligi ma'lum bo'ldi.

XULOSALAR

Olib borilgan tadqiqot asosida quyidagi ilmiy-nazariy xulosalar taqdim etildi:

1. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ijtimoiy-madaniy hayot, maktab, ta'lim-tarbiya jarayonlari, didaktik fikrlar shakllanishining shart-sharoitlari tahlil etildi.

2. O'zbekistonda didaktika fani rivojlanishining o'ziga xosliklari, didaktik fikrlarni o'rganishning metodologik asoslari amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar ilmiy va pedagogik tahlil qilindi, o'qitish metodikasi va didaktik fikrlarning o'ziga xosliklari aniqlandi.

3. Mustaqillik sharofati bilan O'zbekistonning "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun hamda amalga oshirilayotgan islohotlar didaktik fikrlarning rivojlanishiga,

maktablar va Oliy ta'lim tizimining takomillashishiga, uzluksiz ta'limning barcha sohaslarida yangilanishlarga asos bo'ldi.

4. O'zbekistonda mustaqillik yillarida pedagogika tarixi, didaktika sohasiga doir tadqiqotlarning ilmiy tahlili shuni ko'rsatdiki, bu tadqiqotlarda mazkur masalalarga yangicha yondashuvlar, ta'limiy an'analarning qayta tiklanishi kabilar kuzatildi va bu didaktik fikrlar taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatdi.

5. O'zbekistonda didaktik fikrlar taraqqiyotida o'quv fanlarini o'qitish metodikasi, ta'lim jarayoniga innovatsion metodlarni olib kirish, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash, shuningdek, zamonaviy o'qituvchi oldiga qo'yilayotgan talablar va imkoniyatlar haqidagi ilmiy-pedagogik fikrlarning ilgari surilishi yoshlarni barkamol avlod sifatida tarbiyalashning asosiy omili ekanligi aniqlandi.

6. O'zbekistonda mustaqillik yillaridagi didaktik fikrlarning ta'lim samaradorligiga ta'siri darajasi ilm-fan, shu jumladan, didaktika fanining tarixiy taraqqiyot yo'li, uning amaliy tajribasidan ijodiy foydalana olish mamlakatimiz ta'lim tizimi va tarbiya jarayonlaridagi bugungi kun talablarini va yangi vazifalarni samarali hal etishning asosiy vazifalardan biri hisoblanishi ma'lum bo'ldi.

7. O'zbek xalqining milliy mentaliteti, ijtimoiy hayoti va milliy o'ziga xos jihatlarni inobatga olgan holda mavjud bo'lgan didaktik qarashlar, pedagog olimlarimizning ta'lim-tarbiyaga oid fikrlari boy, tarixiy-milliy tajribalar asosida rivojlandi, ulardan uzluksiz ta'lim tizimida foydalanish o'zining samarasini berishi aniqlandi.

8. Tadqiqot jarayonida muammoning maqsad va vazifalari mohiyatidan kelib chiqqan holda tajriba-sinov ishlarning aniq loyihalashtirilganligi sababli maqsadga erishilganligi aniqlandi. Tajriba-sinov ishlari jarayonida loyihalashtirilgan faoliyat bosqichlari va ularning tadqiqot maqsadiga mos ravishda olib borilganligi sababli natijaga erishish yo'llarini to'g'ri belgilanganligi asoslandi.

9. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ta'lim-tarbiya va didaktik fikrlarning hozirgi kun uchun ahamiyatligi, talabalar diqqatiga yo'naltirilganligi sababli, ularning didaktik fikrlarga qiziqishlari oshganligini tajriba-sinov ishlari ko'rsatdi.

10. Tajriba-sinov ishlari jarayonida mustaqillik yillarida O'zbekistonda shakllangan didaktik fikrlar doirasida bayon etilgan ma'lumotlar talabalarning bilim saviyasi va o'zlashtirganlik darajasi yangi sifatlarga ega bo'lganliklari aniqlandi.

11. Tadqiq qilinayotgan muammo doirasidagi masalalar hozirgi kun umumiy pedagogika uchun muhim ekanligi va uning barkamol avlod tarbiyasidagi ahamiyati asoslandi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAVSIYALAR

1. Tadqiqot materiallaridan "Umumiy pedagogika", "Pedagogika tarixi", "Didaktika", "Qiyosiy pedagogika" fanlarini o'qitish jarayonida yoshlarni

vatanparvarlik, milliy gʻurur va iftixor ruhida tarbiyalash, didaktik taʼlimotlar taraqqiyoti bilan tanishtirish lozim.

2. Pedagog olimlarning didaktik fikrlaridan taʼlim jarayonini tashkil etishda, ilgʻor pedagogik ish tajribalaridan texnologik, ijodiy, aksiologik paradigmalarga asoslangan holda shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlimni amalga oshirishda keng foydalanish lozim.

3. Oʻzbekistonda mustaqillik yillarida didaktik fikrlar taraqqiyotiga doir tadqiqot natijalaridan darslik, oʻquv qoʻllanmalarining mazmunini boyitish, elektron oʻquv adabiyotlarini yaratishda foydalanish mumkin.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ
PhD.03/30. 12.2019.Ped.72.04 ПРИ БУХАРСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

КУРБОНОВА УЛМАС УСМОНОВНА

**РАЗВИТИЕ ДИДАКТИЧЕСКОЙ МЫСЛИ В УЗБЕКИСТАНЕ ЗА ГОДЫ
НЕЗАВИСИМОСТИ (2006-2019 годы)**

13.00.01 – Теория педагогики. История педагогических учений

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Бухара – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за № В2021.1.PhD/Ped2175.

Диссертация выполнена в Бухарском государственном университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.buxdu.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Адизов Бахтиёр Рахмонович
доктор педагогических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Маъмуров Баходир Бахшуллаевич
доктор педагогических наук (DSc), профессор

Кенжаева Дилдора Тиркашевна
кандидат педагогических наук, доцент

Ведущая организация:

Ургенчский государственный университет

Защита диссертации состоится «24» 02 2023 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.Ped.72.04 при Бухарском государственном университете. (Адрес: 200117, город Бухара, улица, М.Икбол, дом 11. Тел.: (0 365) 221-29-14; факс: (0 365) 221-57-27, email: buxdu_rektor@buxdu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрирована под № 274). (Адрес: 200117, город Бухара, улица, М.Икбол, дом 11. Тел.: (0 365) 221-25-87).

Автореферат диссертации разослан «11» 02 2023 года.

Реестр протокола рассылки № 1 от «11» 02 2023 года.



С.К. Каххоров
Председатель Научного Совета по присуждению учёных степеней, д.п.н.

А.Р. Жураев
Член, секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, д.ф.н. (PhD), профессор

Х.О. Жураев
Председатель Научного семинара при Научном Совете по присуждению учёных степеней, д.п.н., (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В принятой международными организациями мира концепции образования, намеченной на период до 2030 года, «образование признано главной движущей силой развития и важной деятельностью, ведущей к достижению целей устойчивого развития»¹, в связи с этим широко применяются методы совершенствования образования и оценки результатов овладения знаниями, предоставление качественного образования, открытые образовательные ресурсы, эффективные методы развития интеллектуального уровня обучающихся. В качестве приоритетной задачи обозначено создание механизмов организации учебно-воспитательного процесса, а также моделей его совершенствования, методической системы, мультимедийных электронных ресурсов в соответствии с требованиями времени.

В мире проводится ряд научных исследований по определению основных тенденций и приоритетных направлений развития дидактической мысли, совершенствованию отечественных моделей на основе компаративистского подхода, разработке педагогических механизмов гуманизации образования на основе передового зарубежного опыта в условиях глобализации образовательных процессов. При этом большое значение имеет «совершенствование процесса и средств оценки качества образования, внедрение в практику механизмов, позволяющих определять достигнутые результаты». В условиях рыночных отношений необходимо воспитывать педагогические кадры, способные к сотрудничеству.

В «Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» одной из важных задач в нашей стране обозначена государственная поддержка развития национальной системы образования узбекского народа². Для достижения этой цели большое значение имеют гармонизация системы образования нашей страны с международными образовательными стандартами, обеспечение качества и конкурентоспособности подготовки кадров в образовательных учреждениях, повышение уровня качества системы образования на основе мировой практики, разработка эффективных методов внедрения научных и инновационных достижений за счёт широкого применения передовых дидактических идей в системе непрерывного образования, проведение научно-теоретических и комплексных исследований.

Данное диссертационное исследование в определённой степени служит реализации задач, обозначенных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», № УП-5847 от 8 октября 2019 года «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», Постановлениях Президента Республики

¹ Incheon Declaration / Education 2030. Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all. – p. 6–7// <http://unesdoc.unesco.org/images/0023/002338/233813m.pdf>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, <https://lex.uz/docs/5841063>

Узбекистан № ПП-2909 от 20 апреля 2017 года «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования», Постановление Президента Республики Узбекистан № 3775 “О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах” от 5 июня 2018, № ПП-4884 от 6 ноября 2020 года «О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию системы образования и воспитания», Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан № 824 “О мерах по совершенствованию системы связанной с организацией учебного процесса в высших учебных заведениях” от 31 декабря 2020 года и других нормативно-правовых документах.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением науки и технологий в республике I. «Формирование системы и инновационных идей и пути их внедрения в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информатизированного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Научно-исследовательская работа по истории развития дидактической мысли в нашей республике была проведена на определённом уровне. В частности, в изучение методологических основ реформирования содержания образования и воспитания внесли вклад Ж.Юлдашев, С.Нишонова, Ж.Хасанбоев, У.Алеуов, Н.Эркабоева, М.Салаева, Э.Пурханов, в нашей стране исследования по изучению развития педагогических идей народов Центральной Азии проводили Ш.Абдуллаева, У.Алеуов, А.Зуннунов, Х.Ибрагимов, С.Нишонова, К.Хошимов, Ж.Хасанбоев, Д.У.Джураев, М.С.Салаева, исследовательскую работу в области дидактики и частной методики вели А.Зуннунов, Н.Гайбуллаев, Ж.Юлдашев, Р.Сафарова, М.Махмудова, Б.Адизов, М.Махмудов, Г.Наджмиддинова³.

Сравнительные аспекты развития дидактической мысли были раскрыты в исследованиях учёных Содружества Независимых Государств Н.В. Бордовской, А.Н. Джурицкого, В.В. Краевского, В.С. Степина, А.В.Хуторского, В. Оконя и Э.Г. Гельфмана.

Ведущие тенденции и приоритетные направления развития гуманизма, культурного диалога, реформаторской педагогики в исследованиях зарубежных учёных проанализированы в исследованиях С.Bereiter, I.Illich, L.Kohlberg, J.Lemke, I.Lakatos.

